

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**



“TASDIQLAYMAN”

**Biznes va tadbirkorlik oliy
maktabi direktori o‘rinbosari
B. Xolbayev**

«14» avgust 2026 y.

“TADBIRKORLIK VA BIZNES ASOSLARI”
(mavzusidagi qisqa muddatli o‘quv kursining)

O‘QUV DASTURI

Toshkent – 2026

“Tadbirkorlik va biznes asoslari” - mavzusidagi qisqa muddatli o‘quv kursining dasturi - 10 bet.

Tuzuvchilar:

- Kenjabaev A.T. – Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Marketing va raqamli iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor
- Otakuziyeva Z.M. – Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, Marketing va raqamli iqtisodiyot kafedrası, professor
- Ishmuxamedov B.J. – Hududiy filiallar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari

Taqrizchilar:

- Suyunov D.X. – Biznesni boshqarish (MBA) kafedrası mudiri, i.f.d., professor
- Qodirov T.U. – Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, o‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i

O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Ilmiy Kengashi tomonidan ma’qullangan va o‘quv jarayonida qo‘llash uchun tavsiya etilgan.

(Oliy maktab Ilmiy Kengashining 2026-yil “14” mayda tasdiqlangan 4-sonli bayonnomasi)

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 7 avgustdagi 340-son qarorida belgilangan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4862-son, “Xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022 yil 22 iyuldagi PQ-329-son qarorlari hamda “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 21 dekabrda PF-269-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish, xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” belgilanganligi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining “Yoshlar va xotin-qizlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish dasturlarini samarali amalga oshirish hamda ularning tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar ajratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 22 iyundagi 388-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida hamda 2024 yil 30 dekabrda 904-son qarorlari ijrosini ta‘minlash, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka yo‘naltirish, ularning bandligini ta‘minlash va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, kasb-hunarga yo‘naltirish samaradorligini oshirish, ularni davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tomonidan 40 akademik soatga mo‘ljallangan o‘quv dasturi ishlab chiqildi.

Ushbu o‘quv dasturida marketing, bozor turlari, raqobat, reklama, tovar va mahsulotlarni samarali sotish, kabi masalalardan iborat mavzular o‘z ifodasini topgan.

O‘quv dasturining maqsadi va vazifalari

O‘quv kursi

Tadbirkorlik va biznes asoslari:

- aholini, shu jumladan, yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish, ularni tadbirkorlikka yo‘naltirish;
- aholiga qulayliklar yaratish maqsadida tadbirkorlikka o‘qitish tizimini takomillashtirish;
- kambag‘allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish.

O‘quv kursi maqsadi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini kichik va o‘rta biznesga keng jalb qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori 2024 yilda 2 mln aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash shuningdek, kichik biznes faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

O‘quv kursi vazifasi – Tinglovchilarga amaldagi ijtimoiy-iqtisodiy va hududiy shart sharoitlarni, maqsadlarni, zamonvay texnologiyalarni, bozor va raqobat muhitini tahlil qilishni, ishbilarmonlik xavfini hisobga olgan holda biznesning faoliyat yuritishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash, biznes boshlashda marketing, bozor turlari, raqobat, reklama, tovar va mahsulotlarni samarali sotish, shuningdek tovar va narh siyosati kabi nazariy bilimlarga ega bo‘lishdan hamda mamlakatda aholi turmush

tarzini yaxshilash bo'yicha turli holatlarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishni o'rgatishdan iboratdir.

Tinglovchilar toifasi:

Aholi, shu jumladan yoshlar va xotin-qizlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar, dehqon xo'jaliklari, o'zini o'zi band qilgan shaxslar, hunarmandlar, kasanachilar, nodavlat ta'lim tashkilotlari, uch va undan ortiq kishini doimiy ish bilan ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari hamda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida o'z biznes loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar.

O'qitish muddati: 5 kun

O'quv yuklamasi: 40 akademik soat.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va vositalari

Tinglovchilar tomonidan "Tadbirkorlik va biznes asoslari" o'quv kursini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy uslublari, yangi axborot-pedagogik texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Fanni o'qitishda darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, taqdimotlar, multimedia mahsulotlari va elektron didaktik texnologiyalar va Internet materiallaridan keng foydalaniladi. Moslashtirilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladi.

Interaktiv ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitish uslublari:

- interfaol ma'ruzalar (munozara tarzida);
- ishchi holatlarni tahlil qilish;
- ishchi va rolli uyinlar;
- keys-stadi;
- psixologik va boshqa treninglar;
- "aqliy hujum", "kichik guruhlarda ishlash" orqali turli vaziyatlarda muammolarni hal qilishni o'rganish;
- kompaniyalarga amaliy tashriflar.

O'quv kursini talab darajada o'qitishni tashkil qilish uchun zarur moddiy-texnik ta'minot:

1. Auditoriyada komp'yuter, ekran, proektorlarni mavjudligi va ulardan taqdimotlarda foydalanish.

2. Komp'yuter sinflari yoki o'quv zallarida yetarli komp'yuterlarning mavjud bo'lishi va ulardan darsliklarning, o'quv qo'llanmalarining elektron variantidan foydalanish imkoniyatining bo'lishi.

Tadbirkorlik va biznes asoslari o‘quv kursining soatlar bo‘yicha taqsimlanishi

№	Mavzuning nomi	Jami soatlar	Shu jumladan:		
			nazariy	amaliy	nazorat
1	Kirish. Tadbirkorlik nima? Biznes sari ilk qadam	2	2		
2	Oilaviy tadbirkorlikning me‘yoriy-huquqiy asoslari	2	2		
3	Korxonalar tushunchasi va uni tashkil qilish. Korxonalar (tashkiliy, moliyaviy, kadrlar) boshqaruvi	2		2	
4	Biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va ruxsat beruvchi xujjatlarni olish	2	2		
5	Soliqlar va majburiy to‘lovlar, ular bo‘yicha imtiyozlar	2	2		
6	Buxgalteriya hisobi va soliqlar	2	2		
7	Kichik biznesda moliyaviy munosabatlar va sugurtalash	2		2	
8	Marketing va maxsulotlarni samarali sotish	4	2	2	
9	Tovar belgisi va brend asoslari	2	2		
10	Tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi	2	2		
11	Kontrafakt mahsulotlar va javobgarlik	2	2		
12	Kreditning moliyaviy manbalari. Kreditlar. Lizing	2	2		
13	Tadbirkorlik sub‘ektlarining eksport va import operatsiyalari	2		2	
14	«E-IJRO AUKSION» savdo platformasi	4		4	
15	Xomashyo va resurslardan foydalanish huquqini olish. Davlat va korporativ haridlarda tadbirkorlik sub‘ektlari ishtiroki	2	2		
16	Biznes rejaning tarkibiy qismlari Biznes-reja ishlab chiqish	4	2	2	
17	Yakuniy nazorat testi	2			2
	Jami:	40	24	14	2

Izoh: dars mashg‘ulotlari davomiyligi 5 kun. (kuniga 8 soatdan)

O'quv kursi mashg'ulotlarining mazmuni

Mavzuning maqsadi - bozorda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni faollashtirish uslublarini, tovarlarni ishlab chiqarish hamda sotish muammolarini yaxlit, tizimli echish uslublarini, bozorda vujudga keladigan o'zgarishlarga tezda moslashish, iste'molchilarga tabaqali yondashish, raqobatbardosh yangi tovarlarni vujudga keltirish va ularni ishlab chiqarishni tashkil etish, kon'yunkturani o'rganish va prognoz qilish hamda ta'sirchan reklamani rivojlantirish masalalarini o'rganish.

Mavzuni o'zlashtirish natijasida guruxda shakllangan tinglovchilarning kompetensiyalari (bilish, ega bo'lish, egalik qilish).

Modulni tugatgandan so'ng, tinglovchilar quyidagilarni bilishlari kerak:

- marketingning mohiyati va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati;
- marketingning huquqiy asoslari;
- marketing tadqiqotlari usullari.

Tinglovchi bilishi kerak:

- marketing konsepsiyasidan samarali foydalanish usullarini;
- korxonada marketingni tashkil qilish shakllarini;
- marketingning asosiy tamoyillarini;
- yangi tovar ishlab chiqarish va bozorga chiqarish usullarini;
- raqobat muhitini shakllantirishni;
- ayirboshlash, bitim munosabatlari.

Tinglovchi quyidagi malakaga ega bulishi kerak:

- marketing xizmatlarini tashkil etish;
- marketing rejasini ishlab chiqarish;
- bozor holati haqida axborot to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;
- tovar siyosatini samarali boshqarish;
- tovar raqobatbardoshligini oshirish;
- yangi tovarlarga narx belgilash;
- reklama samaradorligini aniqlash bo'yicha ko'nikmalar;
- onlayn savdo maydonchalarida savdo qilish.

Mavzularning qisqacha mazmuni:

1-mavzu. Kirish. Tadbirkorlik nima? Biznes sari ilk qadam

Tadbirkorlik faoliyatidagi asosiy tushunchalar. Tadbirkorlik va biznes tushunchalari. Tadbirkorlik huquqining asosiy tamoyillari. Tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish tamoyili. Tadbirkorlik munosabatlariga iqtisodiy uslublarni qo'llash asosida davlatning ta'sir etish tamoyili. Tadbirkorlik g'oyasi va bozor. G'oyalarning tug'ilishi. Eng yaxshi biznes g'oyani izlash. Tadbirkorlik maqsadlarini qo'yish.

2-mavzu. Oilaviy tadbirkorlikning me'yoriy-huquqiy asoslari

Oilaviy tadbirkorlik, oila a'zolari. Oilaviy tadbirkorlik ishtirokchilari. Oilaviy tadbirkorlik yo'nalishlari. Oilaviy korxonalar. Oilaviy korxonani tashkil etish tartibi. Oilaviy korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish. Oilaviy korxonalar faoliyatini amalga oshirish shartlari. Yakka tartibdagi tadbirkor. Xususiy korxonalar. Bozor tushunchasi. Xizmat ko'rsatish yoki savdo faoliyatini amalga oshirish.

3-mavzu. Korxonalar tushunchasi va uni tashkil qilish. Korxonalar (tashkiliy, moliyaviy, kadrlar) boshqaruvi

Kichik biznesda boshqaruv usullarini o'zlashtiradi. Xodimlarni tanlay oladilar va boshqaradilar. Ishlab chiqarish samaradorligini aniqlay olish. Korxonani boshqarish sirlarini bilish. Kichik biznesda boshqaruv usullari. Personalni tanlash va ularni boshqarish. Ishlab chiqarishni boshqarish. Korxonani boshqarish sirlari.

4-mavzu. Biznesni ro'yxatdan o'tkazish va ruhsat beruvchi xujjatlarni olish

Tadbirkorlik turlari va shakllari. Tadbirkorlik sub'ektlarining ta'sis hujjatlarini tayyorlash. Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi.

5-mavzu. Soliqlar va majburiy to'lovlar, ular buyicha imtiyozlar

O'Yuridik shaxslarni va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibini bilib oladilar. Soliqqa oid qonunbuzarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda qo'llaniladigan soliq imtiyozlaridan foydalana oladilar. Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tartibi O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning tarkibiy tuzilishi.

6-mavzu. Buxgalteriya hisobi va soliqlar

Korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish mazmuni. Xodimlarga mehnatiga ish haqi to'lash tartibi. 1C: buxgalteriya dasturi. Yuridik shaxslarni va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibini. Soliqqa oid qonunbuzarliklar va ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda qo'llaniladigan soliq imtiyozlari. Korxonalarda buxgalteriya hisobi. Mehnat va ish haqi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi va uning tarkibiy tuzilishi. Tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tartibi.

7-mavzu. Kichik biznesda moliyaviy munosabatlar va sug'urtalash

Kichik biznesda moliyaviy munosabatlar va uning algoritmini o'zlashtiradi. Sug'urta va uning shakllarini, sug'urtalash masalalarini o'zlashtiradilar. Kichik biznesda moliyaviy munosabatlar va uning algoritmi. Sug'urta. Uning shakllari. Sug'urtalash. Muammoli ma'ruzalar, didaktik materiallar, prezentatsiyalari. Kichik guruhlarda ishlash, individual topshiriq bajarish. Vizual kuzatish

8-mavzu. Marketing va maxsulotlarni samarali sotish

Savdoning mohiyati, ijtimoiy va siyosiy ahamiyati. Chakana savdo turlari. Chakana savdo do`konlarining asosiy turlari. Ulgurji savdo mohiyati. Ulgurji savdo va ularning funksiyalari. Ulgurji savdo vositalari. Ulgurji sotuvchilarning asosiy turlari. Xozirgi bozor sharoitida sotuvning yangi va zamonaviy turlari, vositalari, uslublari, shakllari, savdo madaniyatini tashkil etish asosida amalga oshirish. Savdoda sotuvchi, iste'molchi va vositachilarni rag'batlantirish usullari. Sotish siyosatining vazifasi. Sotish kanalini shakllantirish. Tovar sotuvidagi vositachilar va ularning turlari. Tovar harakati bo'yicha qarorlarni shakllantirish. Mijozlar bilan munosabatlarni shakllantirish. Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish. Mijozlarni ushlab turish va sotib olish layoqatlilik darajasi.

9-mavzu. Tovar belgisi va brend asoslari

Tovar belgisi tushunchasi (nom, logotip, belgi, rang, shrift). Brend va tovar belgisi o'rtasidagi farq. Tovar belgisining ahamiyati: bozorda ajralib turish, iste'molchi ishonchini oshirish, qonuniy himoyani ta'minlash. Kuchli brend elementlari: nom tanlash (oson, esda qoluvchi, noyob), logotip va vizual uslub, brend pozitsiyasi va qadriyatlar. Amaliy misollar (mahalliy va xalqaro brendlar asosida).

10-mavzu. Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish tartibi

Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishning muhimligi. Ro'yxatdan o'tkazishning asosiy bosqichlari: belgi noyobligini tekshirish (qidiruv), ariza tayyorlash, vakolatli organga topshirish, ekspertiza jarayoniya, ro'yxatdan o'tkazish va guvoynoma olish (talab etiladigan hujjatlar, vaqt va harajatlar, xalqaro ro'yxatdan o'tkazish imkoniyatlari)

11-mavzu. Kontrafakt mahsulotlar va javobgarlik

Kontrafakt mahsulot. Qalbaki va original mahsulot o'rtasidagi farq. Kontrafaktning salbiy oqibatlari: biznesga yetkaziladigan zarar, iste'molchilar uchun xavf, brend obro'siga putur yetkazish. Kontrafakt mahsulot ishlab chiqarish va sotish uchun javobgarlik: ma'muriy javobgarlik, jarimalar, jinoiy javobgarlik holatlari. O'z brendini himoya qilish usullari: tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish, nazorat va monitoring, huquqiy choralar ko'rish.

12-mavzu. Kreditning moliyaviy manbalari. Kreditlar. Lizing

Kreditlarning foydali tomonlarini o'rganadi. Kreditni so'ndirish afzalliklarini o'rganadi. Lizing foydasi va afzalliklari. Tadbirkorlik sub'ektlariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun qisqa muddatli kreditlash. Tadbirkorlik sub'ektlarining investitsion loyihalarini moliyalashtirish uchun uzoq muddatli kreditlar berish

13-mavzu. Tadbirkorlik sub'ektlarining eksport va import operatsiyalari

Mahsulot marketingini o'rganadi. Eksport va import operatsiyalari amaliyotini bilib oladi. Mahsulotlarni saqlash tartibini o'rganadi. Tavakkalchilik ko'nikmalari. Tadbirkorlik sub'ektlari mahsulotlarini eksport qilish tartibi. Mahsulotlarni eksport qilishda bank kafolatlari va hujjatlashtirilgan akkreditivlardan foydalanish. Tadbirkorlik sub'ektlari importi. Importni amalga oshirishda bank kafolatlari va hujjatlashtirilgan akkreditivlardan foydalanish.

14-mavzu. «E-IJRO AUKSION» savdo platformasi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.01.2022 yildagi 18-son "Elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, "E-auksion" elektron savdo platformasi. "E-auksion" elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish tartibi. Aukсионni tashkil etish va o'tkazish. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish. aukсионdan (tanlovdan) qaytarib olish tartibi va muddatlari. Hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi. Aukсион hamda tanlov natijalarini rasmiylashtirish tartibi va jarayonlari.

15-mavzu. Xomashyo va resurslardan foydalanish huquqini olish. Davlat va korporativ xaridlarda tadbirkorlik sub'ektlari ishtiroki.

O'z mahsulotlarini birja savdolarida sotishni shakllantirish. Birja savdolarini afzalligini bilish. Xomashyo va resurslardan foydalanish huquqini olish. Davlat va korporativ xaridlarda tadbirkorlik sub'ektlari ishtiroki. Mahsulotlar sifatini yaxshilashi.

16-mavzu. Biznes rejaning tarkibiy kislmlari. Biznes-reja ishlab chiqish

Biznes reja mazmuni. Biznes reja ishlab chiqish tartibi. Biznes-rejani tuzish tartibi. O'z biznes rejasini ishlab chiqish. O'z biznes rejasini taqdimot qilish.

Bozorni taxlil qilish. Maxsulot tavsifi. Narx siyosati. Sotish kanallari. Marketing byudjeti. Marketing strategiyasi. Loyihani qisqacha tavsifi. Ishlab chiqarish. Tashkiliy tuzilma. Moliyaviy tahlil, va xavflarni baholash kabi bo'mlar bilan tanishish.

17-mavzu. Yakuniy nazorat testi

O'quv kurslarini muvaffaqiyatli bitirib, yakuniy imtihon natijalariga ko'ra 71 va undan yuqori ball to'plagan bitiruvchilarga Oliy maktab tomonidan sertifikat taqdim etiladi.

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" O'RQ -69-II-son Qonuni, 2000 yil 25 may.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" O'RQ-637-son Qonuni, 23.09.2020 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida" Qonuni 07.06.2022 yil, O'RQ-776-son.
4. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir) – № ZRU–792 – 2022 yil 29 sentyabr.
5. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida" O'RQ-850-son Qonuni, 03.07.2023 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ–4996-son Qaror – 2021 yil 17 fevral
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Raqamli texnologiyalar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida.PF–113-son Farmon – 2022 yil 28 yanvar
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, 07.07.2023 yil, 279-son.
9. Sh.Dj. Ergashxodjaeva, M.A. Yusupov, S.B. G'oyipnazarov, I.B. Sharipov Marketing asoslari. - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: "QTISODIYOT", 2021. - 251 bet.
10. M.Yusupov, M.M.Abdurahmonova, N.G. Akbarov Marketing: o'quv qo'llanma. – T.: Innovasion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi, 2020.
11. B.J.Ishmuxamedov, A.A.Abdurasulov. Kichik biznes va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018, - 143 bet.

Internet saytlari

1. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi davlat portali.
2. <http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari.
3. <https://e-auksion.uz> - Elektron savdo maydonchasi.
4. <http://www.rgsbm.uz> - Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi.